

NABI JALOLIDDINNING “OTA” HIKOYASIDA  
OTA TASVIRI VA OILAVIY QADRIYATLAR

*Samiyeva Dilfuza Shomurod qizi*

*Navoiy shahar 21-umumta`lim maktabi o`qituvchisi*

*NDU 1-kurs magistranti*

*Dilfuzasamiyeva90@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakili **Nabi Jaloliddin** qalamiga mansub "**Ota**" hikoyasida ota obrazi va oila qadriyatlari badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yozuvchining ota siymosini yaratishdagi mahorati, qahramonning ruhiy olami va oiladagi ma’naviy ustunlik vazifasi ochib berilgan. Hikoyadagi hayotiylik va psixologik tahlil vositalari orqali jamiyatdagi dolzarb ma’naviy muammolar ko‘rib chiqiladi. Xususan, ota mehri, farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar uyg‘unligi ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Obraz, psixologik tahlil, ma’naviy, yetuklik, Prezident, ruhiy, tavoze.

Ko`hna tarix va bugungi kunga qadar shakllangan oila qadriyatlari shuni ko`rsatadiki, eng mustahkam va mukammal oila asosi unda yashovchi insonlar o`rtasidagi mehr-oqibat va insoniylikka borib taqaladi. Jamiyatning muhim bo`g`ini bo`lgan bu dargohda esa farzandlar, oila a`zolari o`rtasida o`zaro mehr uyg`otuvchi asosiy poydevor, albatta, ota va ona bo`ladi. Oila poydevorini tashkil etuvchi bu ikki inson o`zida bor barcha insoniy qadriyatlar, yaxshilik tuyg`usini kelajak avlodga singdirishga harakat qiladi va bu jabhada asosiy ildiz,shubhasiz, otadir. Iste`dotli yozuvchi Ulug`bek Hamdam ota timsoliga shunday tarif bergan:”Ota - oilaning nafaqat moddiy, balki ma`naviy tayanchi hamdir. Ota obrazi orqali o`zbek xalqining sabr va matonati namoyon bo`ladi”.<sup>1</sup> Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasi ana shunday jonkuyar otalarga bag`ishlanadi va tom ma`noda o`zbek millatining haqiqiy otasini tasvirlaydi. Hikoya tili shu qadar sodda va tabiiy yozilganki, asarni o`qish jarayonida xuddi quloqlarimiz ostida o`z otalarimiz nasihat qilayotganday, qarshimizda bizga boqib turganday tuyuladi. Qahramonlar nutqidagi shevaga xos so`zlar ko`z o`ngizga sof qishloq manzarasi hamda asl o`zbek oilasini keltiradi. Asar ikki avlod o`rtasida kunora takrorlanib turuvchi uchrashuvdan boshlanadi. Bolalar hatto qachon qurilganini ham bilmaydigan ko`prikning deyarli necha yil oldin, kimlar tomonidan qurilganigacha xotirlovchi bu chol shu jihatning o`zidayoq yoshining anchaga borib qolganini payqaydi. Bir zamonlar hozir qarshisida yugurib yuruvchi bolalardan 10

<sup>1</sup>Ulug`bek Hamdam. “Ota”. Toshkent. Yangi asr avlodi 2020. 140-b

karra ko`proq sho`xlik qilgan, jarangdor tovushi bilan butun qishloqni titratgan keksa otaxonga hozir bu bolalarning shovqini ham erish tuyuladi. Ammo chol baribir har kun shu yerga takror-takror kelaveradi, chunki shu barchaning qulog`ini qomatga keltirib yugurib yuruvchi bolalar, ular atrofida o`ynab charchamaydigan ko`prik, tinmay oqib turuvchi daryo unga o`tgan yillarini, shu bolalar kabi tez va to`xtovsiz kechgan hayotini eslatadi. Asar boshida yozuvchi cholning o`tgan umri va hozirgi hayoti haqidagi mulohazalarni keltirish uchun daryo tasvirini qo`llaydi:

“...Mana shu tezoqar daryoning bu betidan narigi betiga hatto o`n-o`n ikki yasharligidayam bermalol suzib o`ta olardi. Endi esa goho suvga qo`l solgani ham o`ylanib qoladi. Tavba, hozirgi anhor-u daryolarning suvlari biram sovuqki... Avvallari soatlab suvdan chiqmasdi. Yo odam qariganida eti yupqalashib ketganidan shunday tuyularmikan-a?.. Daryoning narigi sohiliga intiq tikildi. Hozir ham suzib o`ta olsa kerak. U yana jilmaydi: xah ko`ngil qursin-a, qarilikni hech tan olgisi kelmaskan-da. O`ng oyog`ining paylari bir tortishsa bukilmay qoladi-yu, daryoda suzarmish. Uyog`ini so`rasangiz, hatto kechasiyam junpaypoq kiyib yotadi”.

Aslida daryo- bu o`tgan umr va haqiqatdan ham chol bir zamonlar hech ikkilanmay qilgan qarorlari, ba`zan o`ylamay bajargan ishlariga endi qo`l urushga qo`rqadi. Inson yoshi ulg`aygani sari yetti o`lchab bir kesishni boshlaydi, deyishgani kabi endi chol oldingi qiziqqonlik bilan bir ishni bajarmaydi, avval yaxshilab o`ylaydi, bo`yiga, eniga bichib ko`radi va shundan so`nggina amalga oshiradi, xuddi daryoga qo`l solgani ham o`ylanib qolgandek. Daryo suvi unga sovuq tuyulgani kabi yoshlar uchun jo`n ko`ringan hayotning ba`zi tomonlari aslida juda murakkab hamda yechish mushkulligini endi u anglab yetgan, yosh avlod o`ylamay qabul qiladigan ba`zi qarorlar aslida juda katta mas`uliyat talab qilishini endi u tushunadi, shu bilan birga bunday donishmandlik unga yoshi o`tib, eti yupqalashganda nasib etganini his qiladi. Endi u kuchsiz, kechalari oyog`i og`riydi, tani juda ham nozik, ammo ruhi baquvvat, qalbi hikmatga to`la. U bundan keyingi umr yo`lini donishmand ota va mehribon bobo bo`lib o`z zuriyotlariga tarbiyaga berishga bag`ishlaydi. O`g`li Hamidullanning oilasida yuzaga kelgan notinchlikni eshitgan ota shu zahoti uni bartaraf etishga urinadi, millatimizda oila deb atalmish muqaddas qo`rg`on mas`uliyatini yaxshi anglagani holda buni farzandlariga ham singdirishga harakat qiladi va darhol o`g`lining uyiga boradi. Chol o`g`lining uyiga kirarkan, kenja o`g`ilning hazil ohangida “Prezident keldi” degan gapini eshitadi, chunki chol ham tom ma`noda o`zi qurgan oila deb atalmish kichik davlatning prezidenti edi va hozir shu davlatning bir poydevori qulamasligi uchun farzandlariga nasihat qilgani kelgan edi. Aslida otaga berilgan “Prezident” tarifining o`zi uning oiladagi o`rni, muhim qarorlarni amalga oshirishdagi ishtiroki va oilaning barcha a`zolaridan baland turuvchi qadr-qimmatini anglatar edi. Bu bilan esa o`zbek oilalarida ota siymosiga boshqaruvchi, yo`naltiruvchi, nazoratga oluvchi shaxs sifatida qaralishi va aynan otaning bosh bo`lgani sabab u yerda

osoyishtalik va hamjihatlik bo`lishi ko`rsatib berilgan. Cholning o`z oilasi uchun amal qiladigan va boshqalarni ham undaydigan qoidalari bor: "...uning xonadonida-yu farzandalarining o`rtasida bir-ikki yengil-yelpi qo`ydi-chiqdilarini hisobga olmaganda hech qachon janjal bo`lmaydi. U shunday tarbiya bergan, chunki azali baqir-chaqir qilib yetti mahallani boshiga ko`taradigan oilalarni yoqtirmaydi. Ahillik, barakaka - xotirjamlikda, deydi...". Otaning ruhiyatidagi yuksaklik, insoniy barkamollik va har qanday muammoda yechim, eng avvalo, ahillik ekanligi haqidagi g`oya beixtiyor kitobxonida unga nisbatan tarif etib bo`lmas muhabbat uyg`otadi. Bir onda kitobxon cholni o`z otasi kabi his etadi. Sakkiz nafar farzandni go`zal axloq va tarbiya ila katta qilgan otaning kenja qizi Gulira`noga bo`lgan ayricha muhabbati o`quvchi e`tiborini tortadi. Chol yakka-yu yagona qizini Gulira`no deb emas, "Chaman qizim" deb chaqiradi. Ota qizini boshqa o`g`illarini kutgangan-da ko`proq kutadi, uni qattiqroq bag`riga bosadi. Ota qizini eng qadrlil va endi vaqtinchalik mehmon ekanligini, yakka-yu yagona ko`ngli istasa yugurib kelolmaydigan farzandi ekanligini angelaydi. Qiziga "Chaman" ismini berishi ham shundan, ya`ni qiz ozib-yozib bir kelganda otaning butun hayoti gul-u gulzor-chamanga aylanadi. Katta o`g`li ota kasbini tutgani-rais ekanligi, ikkita o`g`li maktabda ishlashi(ularning biri direktor, biri oddiy o`qituvchi), boshqa biri jurnalist, yana boshqasi katta davlat lavozimida ishlashi otaning farzandlar kelajagi uchun bir zamonlar qo`lda borini fido qilganini, ilm olish, munosib bir kasb egasi bo`lish hayotning eng muhim qoidalaridan biri ekanligini teran anglaganini bildiradi. Cholning janjallashib qolgan kelini va o`g`li o`rtasidagi suhbat jarayonida keliniga bir og`iz yomon so`z aytmasligi, hatto faqat o`g`lini koyib kelinga gard yuqtirmasligi kabi jihatlarni ko`rib beixtiyor bugungi kun "Yusufbek Hojisi" deysiz. Abdulla Qodiriyning "O`tkan kunlar" asaridagi Yusufbek Hoji obrazi ham keliniga nisbatan adolatli, har qanday mojaralarda vaziyatga adolat ko`zi bilan boquvchi, oiladagi tinchlik va totuvlik kafolati etib tasvirlangan hamda shu orqali kitobxon haqiqiy o`zbek qaynotasini ko`z oldiga keltirgan. Bu o`rinda otaning Yusufbek Hoji bilan o`xshashlik jihatlari o`g`illari bilan o`zaro munosabatlarida ham bilinadi, asarda ota va farzandlar o`rtasidagi hurmat, bir-biriga bo`lgan ehtirom barchamizga tanish Otabek va Yusufbek Hoji obrazlarini eslatadi. Bu o`xshashlikni "O`tkan kunlar" asaridagi quyidagi suhbat bilan ko`rsatish mumkin:

-O`g`lim, hali sen eshitdingmi, yo`qmi haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qoydik...

Otabek shunda ham hech shubhasiz va sokin otasiga javob qaytarishida-da o`z otasi zakosiga ishonish, qalban unga bo`lgan mehr ko`zga tashlanadi:

-Aqllik kishilarning o`g`ullari ustidan qilg`an ishlari, albatta noma`qul bo`lmas.<sup>2</sup>

Nabi Jaloliddinning "Ota" hikoyasi bosh qahramonlari ham bunday sifatlardan aslo holi emas. Otaning harakatlarida-da o`sha madaniyat, o`sha tavoze, o`sha

<sup>2</sup> A.Qodiriy "O`tkan kunlar" romani, NavroV Toshkent-2019. 25-b

ulug`vorlik barq urib tursa, farzandlar nutqida otaga bo`lgan hurmat, unga bo`lgan ehtirom ko`zga tashlanadi. Asar davomida o`quvchida eng katta taassurot qoldiradigan nuqta- bu otaning o`z bolalariga qilgan nasihatidir. Muallif ota va o`g`illar o`rtasidagi suhbatni, o`zaro munosabatni tabiiy ravishda tasvirlash uchun sheva so`zlaridan, oddiy qishloq odamlari lahjalaridan foydalanadi. Asar davomida samimiy oila muhitini tasvirlash uchun jimjimador nutq, badiiy so`zlardan qochadi. Aynan shu jihatning o`zigina asarni mutolaa qilish jarayonida har bir kitobxonning o`z oilasi, o`z otasini ko`z oldiga keltirishiga, otaning nasihatlarini xuddi o`ziga aytilgandek qabul qilishiga sabab bo`ladi. Chol ba`zi insonlarning bugunga ishonmay xato maqsadlar qo`yib, gohida esa hech qanday maqsadsiz yashashini tanqid qilib, aslida inson to`g`ri orzular va maqsadlar natijasida yuksak marralarni zabt etishi mumkinligini, to`gri tanlangan halol yo`l nafaqat insonning o`zi uchun, balki uning orqasidan ergashadigan farzandlari uchun ham foydali bo`lishini bolalariga uqtirishga urinadi. Farzandlariga :”...silar mening atrofimda birlashib, niyatiyzni mening yaxshi niyatimga to`g`irlab yashasaynar, mehnat qilsaynar, ana unda uyimizda baraka, tinchlik bo`ladi. Ya`ni bu degani, qadamiyizi mening qadamlarimga to`g`rilasaynar soz bo`ladi. Xudo niyatimizga qarab beraveradi” degan so`zlari orqali ota bolalarini xuddi o`zi kabi halol hayot kechirishga, u kabi pok niyatlar qilib yashashga, cholning egrilik va xaromdan holi qadamlari ustiga munosib to`g`ri qadam tashlashga chaqiradi. Otaning qadamiga qadam to`g`irlash ham aslida u bosgan umr yo`llarida u kabi sabrli bo`lish, aql bilan qaror chiqarish, iymonni har nedan ustun ko`rib, oila qo`rg`onini asrashni anglatardi. Ota gapida davom etarkan, ertaga farzandlarining farzandlari ham otalari niyatiga o`z niyatlarini to`g`irlashini, qadami ustiga munosib qadam bosishga harakat qilishini qistirib o`tadi. Bu bilan chol farzandlariga turli xil nobop yo`llardan qochish kerakligini, bu hayot qaytar dunyo va farzand o`z otasi bosib o`tgan yo`ldan o`tishini, otaning har bir qadami farzandining kelajagi uchun chizilgan bir yo`l ekaniga ishora qiladi. Ota shaxsiyatining oiladagi o`rni cholning kichik jumalari asosida kitobxonga yetkaziladi. Chindan ham, asar qahramoni bo`lgan ota umr bo`yi halol rizq bilan oilani boqdiki, barcha farzandlar o`z oilalarini xuddi otalaridek boshqarmoqda. Ota aynan shunga, agar farzandlari uning qadamiga mos qadam tashlamasa, ertaga ularning farzandlari ham otalarining ortidan ketishdan bosh tortishiga, farzand eng avvalo o`rnakni otadan olishiga ishora qilmoqda. Shu o`rinda ministr o`g`lini misol keltirib, yurt so`rab, katta lavozimlarda ishlab, minglab odamlar bosh egadigan o`g`lining hamisha o`z otasi oldida boshi egikligini, qanchadan qancha odamlarga ish buyuradigan davlat lavozimi egasining otasining gaplarini ikki qilmasligini aytadi hamda aslida, bunday yuksak martaba va lavozimlarga erishish sababi ham farzandining otaga itoat qilganida ekanligini bolalariga uqtiradi. Asarda ota tilidan aytilgan o`zbek oilasi qadriyatlar haqidagi “O`zbekning birligi, kuchi oilada” yoki “Otasiga itoat etguvchi millatni hech qachon yengib bo`lmaydi” kabi jumalarni

uchratish mumkin. Bugun ba`zi yoshlar uchun toptalgan va hatto mensimay qo`yilgan ota timsolining oilada, unda ulg`ayuvchi farzandlar hayotida naqadar katta o`ringa ega ekanligi shu kichik hikoya timsolida ko`rsatib berilgan. Zero sevimli shoiramiz Zulfiya Isroilovanning ota timsolini “Buyuk shodlik” deb atashi ham bejizga emas. Nabi Jaloliddin ota siymosi ostida yashirilgan shu “Buyuk shodlik”ni kitobxonga ko`rsatishga harakat qiladi va hech qanday jimjimador so`zlar va alqovlarsiz bu ishning uddasidan chiqadi. Hatto asarda ota nutqida-da bu yaqqol namoyon bo`ladi. Chol farzandlariga nasihat qilar ekan havoyi so`zlardan qochadi, jumalari soxtalashib ketayotgandek tuyulgan nuqatada darrov to`xtaydi, har qanday oshiqcha mubolag`adan rad etadi, bolalari oldida bunday vaziyatlarga tushib qolsa hijolat tortadi. Aynan shu elementning o`zi ham ota umri rostgo`yig-u haqiqat ichida, soxta xushomadlardan uzoq o`tganini bildiradi. Kenja o`g`il hazillashib:”Bu gaplardi qaysi kitobdan o`qidiyz ota?” deganda esa u oddiy ammo juda samimiy javob qaytaradi:”Hayot kitobidan, bolam, hayot kitobidan”. Asarda ota farzandlari uchun muallim kabi o`z bilganlarini o`rgatishga tirishida, faqat, bu matematik formula yoki fizik qonunni emas, balki baxt formulasi, hayot qonunlari edi.

Asar davomida donishmand otaning so`zlaridan qanchalik ta`sirlangan bo`lsangiz, hikoya oxirini o`qir ekansiz xuddi o`z otangizni yo`qotgandek qayg`uga tushasiz. Asar so`nggida cholning cho`kib ketayotgan bir bolakayni qutqarib, o`zining tezoqar daryo ichiga singib ketishi, olisidan faqat do`ppisininggina miltirab ko`rinishi ko`zlarda yosh qalqitadi. Ammo aslida bu holatda ham ramziy ma`no yashirin, chunki yosh bolakayni qutqarib o`zi daryoda cho`kib ketgan bu chol dunyodagi jamiki otalar timsolidir. E`tibor berganmisiz, otalar ham xuddi shunday: hayot atalmish buyuk oqim bag`rida bizni cho`kib ketishdan, yuksak tubliklarga sho`ng`ib halok bo`lishdan asraydi, yelkamizdan tutadi, bor kuchi bilan bizga yordam beradi. Biz endi tahlikasiz, mas`ud kunlarga erishgandan esa bizni tutib charchagan qo`llari, biz uchun suzgan oyoqlari harakatdan to`xtaydi va ular asta-sekin hayot ummoniga sho`ng`ib so`nggi manzillari sari safar qiladilar. Biz esa xavfsiz, mukammal hayotimizda ulardan qolgan xotiralar bilan yashashda davom etamiz. Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasi mana shunday ramzlarga to`la, butun dunyo otalari uchun atalgan qasida kabi. Bu asar o`z hayoti, qilgan ishlari, halol qadamlari bilan farzandlariga o`rnak bo`la oluvchi otalar haqida va qaysidir ma`noda ba`zi yosh avlod va otalar uchun ogohlantirish kabi.